



BOLALARDA ICHAK INFEKSIYALARINING OG'IR KECHISHIDA GASSER SINDROMI

Mirzaev D.A.

“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti

Tibbiyot kafedrasi dotsenti, t.f.n.,

+99888;131-17-03

e-mail: doc.mirzayev92@mail.ru

Kalit so‘zlar: o‘tkir diareya, yuqumli kasalliklar, gemolitik-uremik sindrom, o‘tkir buyrak yetishmovchiligi.

So‘nggi yillarda bolalarda o‘tkir diareya kasalliklarining asoratlangan shakllari tez-tez uchramoqda. O‘tkir buyrak yetishmovchiligi rivojlanishi bilan gemolitik-uremik sindrom kabi asoratlarni boshqa asoratlarni orasida birinchi o‘rinni egallay boshladi.

Trombotsitopeniya, gemolitik anemiya va o‘tkir buyrak yetishmovchiligi - (O‘BYe) bilan xarakterlanadigan sindrom birlamchi nozologik shaklda 1955 yilda S.Gasser va hammualliflar tomonidan kiritilgan va Gasser sindromi yoki gemolitik-uremik sindromi - (GUS) deb atalgan. (1;3;4).

Ishning maqsadi: o‘tkir diareya bilan kasallangan bolalarda GUS rivojlanishini va klinik kechishini o‘rganib chiqish va davolash taktikasini ishlab chiqish.

Izlanish material va uslublari: Yuqumli kasalliklar reanimatsiya va intesiv davolash bo‘limida o‘tkir diareyani GUS asorati bilan 20ta bemor bolalar nazoratda bo‘ldi. Ulardan 10tasida shifoxonaga kelib tushgan vaqtini o‘zida GUS tashxisi qo‘yilgan. Ulardan o‘g‘il bolalar 4(40,0%), qizlar 6(60,0%), 1-3 yoshli bolalar 6(60,0%)ta, qolgan 4(40,0%)tasi 3 yoshdan katta bo‘lgan bolalar tashkil qildi. Kasallik tarixi taxlil qilib ko‘rilganda, hamma bolalarda kasallik prodromal davrdan boshlanib, birlamchi diareya (qayd qilish, tana haroratini ko‘tarilishi) belgilari bilan boshlangan. Prodromal davrning davomiyligi 6 kundan 14 kungacha davom etgan.

Xolsizlik, befarqlik, bezovtalik kabi gipoksik ensefalopatiya bilan nevrologik asoratlarni barcha bemorlarda aniqlandi. Talvasa sindromi 5 (50,0%) kasal bolalarda kuzatilgan va bu faqat 3 yosh va undan katta bolalarda uchrashi aniqlangan. Koma holati 1 bolada reanimatsiya bo‘limiga qabul qilingan vaqtda qayd etilgan. Barcha kasal bolalarda mochevina, kreatinin ko‘rsatkichlarining oshishi (21-40 mmol/l va 115-450 mmol/l,) va buyrakning azotni ajratish funksiyasi buzilganligi aniqlandi.

Koagulogrammaning laboratoriya ko‘rsatkichlarini tahlil natijalari bemorlarning 4 tasida (40,0%) giperkoagulyatsiya belgilari, bemorlarning 5 tasida (50,0%) gipokoagulyatsiya belgilarini ko‘rsatdi. 1 bemorda koagulogramma buzilishi qayd etilmagan.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

GUSni davolash elektrolitlar buzilishi, eritrotsitlar gemolizi, arterial gipertenziya va nevrologik simptomlarni bartaraf etish va tuzatish maqsadida amalga oshirildi. Geparin bilan antikoagulyant terapiya o'tkazildi. Bemorlarga plazma quyish, qon quyish, parenteral oziqlantirish berildi. Nevrologik kasalliklarda GOMK, relanium, dormicum preparatlari bilan sedativ va talvasaga qarshi terapiya o'tkazildi.

L.T.Tebloeva va hammualliflar (1987y.) ma'lumotlariga ko'ra kamqonlikni darajasi kasallikni og'irligi va kasallik yakunini belgilab beradi. Yotqizilgan hamma bemor bolalarda gemolitik anemiya (Hb- 60,0g\ldan past) mavjudligi va o'tkir buyrak shikastlanishini turli xil darajasi aniqlangan. 8(80,0%)ta bemor bolalarda O'BSh periferik shishlar bilan kechgan. Oligouriya 3(30,0%)ta, anuriya 7(70,0%)ta bemor bolalarda aniqlangan.

Natijalar. Tadqiqotdan oldingi davrda shunga o'xshash bemorlarning 42 ta kasallik tarixini retrospektiv tahlil qilish qilinganda GUS bo'lgan bemorlarda o'lim 100%ni tashkil qilganligi aniqlangan.

O'BYe GUSda davolashda ekstrakorporal gemodializ usuli qo'llanildi. M.S. Ignatova va hammualiflar (1998y.) ma'lumotiga ko'ra o'z vaqtida o'tqazilgan gemodializ GUS yakunini belgilab beradi.

Nazoratdagi bemor bolalarga hayotiy ko'rsatmalar asosida gemodializ senslari o'tkazildi. Gemodializ samaradorligi tekshirilgan bemorlarda terapiya oxirida bir qator klinik alomatlar, laboratoriya ko'rsatkichlari va kasallik natijalari dinamikasi bo'yicha baholandi.

Xulosa. Bolalarda o'tkir diareya kasalligini og'ir kechishi GUS va O'BYe asoratlanadi. Erta tashxis qo'yish va o'z vaqtida ko'llanilgan davo choralari ushbu asoratlarni ijobiy hal qilish imkonini beradi.

Geemodializ terapiyadan foydalanish o'tkir ichak infeksiyalari fonida GUS bo'lgan bolalarda 90% hollarda samarali ekanligi aniqlandi va samaradorlik darajasi asosan kasallikning davomiyligi, oligoaniuriya davomiyligi va bemorlarda biokimyoviy o'zgarishlarning tabiati bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gromova Z.Z; Turgunbaev M.D. – Gemolitiko-uremicheskiy sindrom u rebenka rannego vozrasta: / Zdravooxranenie Kirgizii – 2019 №4 s.58-60.
2. Ignatova M.S; Papayan Yu.L; v kn. Ostraya pochechnaya nedostatochnost – 1998. 285 str.
3. Tebloeva L.T. i soavtor. – Klinika i isxodы ostroy stadii gemolitiko-uremicheskogo sindroma u detey: /Pediatriya – 2017. №5.s.45-48.
4. Gordiani N et all – Hemolytic-uremic syndromes in childhood. /Seminar Thromb. Hemost.-2014.23(3):281-91.

